

PAPER

ARAB GAZETASIDA XABAR JANRLARI TARIXI

Shamsuddin Sadriddinovich Fayziyev ^{1, *}

¹ Oriental universiteti stajyor-o'qituvchisi

* shamsuddin99@icloud.com

Abstract

Maqolada arab matbuotining shakllanish jarayoni, bosmaxonalar paydo bo'lishi va gazeta janrlarining rivoji tahlil etilgan. XVI asrdan boshlab Rim va Usmoniylar davrida arab harflaridagi bosma nashrlar keng tarqalib, XIX asrda "Buloq bosmaxonasi" arab jurnalistikasi taraqqiyotiga asos solgani ko'rsatilgan.

Shuningdek, ilk arab gazetalar – "Al-Javoyib", "Ar-Roid at-Tunisi", "Az-Zavro" kabi nashrlarning ijtimoiy va ma'rifiy mazmuni, janriy xususiyatlari o'rganilgan. Maqola oxirida "Ash-Sharq al-Avsat", "Al-Hayat", "Arab News" kabi zamonaviy arab gazetalarining xalqaro jurnalistikadagi o'rni yoritilib, arab matbuoti taraqqiyotining tarixiy va zamonaviy bosqichlari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Key words: matbuot, arab jurnalistikasi, janr, siyosiy xabarlar, nashr va axborot.

KIRISH

Arab gazetalaridagi xabar janrining tarixiy rivojlanishiga nazar solish uning stilistik xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tarixiy davrlar bo'yicha o'zgarib borayotgan til me'yorlari, uslubiy yondashuvlar va kommunikativ maqsadlar xabarlarining stilistikasiga qanday ta'sir etganini ko'rsatadi. Niderlandiyalik tilshunos olim Teun A. van Dijk ta'kidlaganidek «Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction» asarida ta'kidlaganidek: «Jurnalistika va matbuot tili o'zgaruvchan va dinamik tizimlar bo'lib, ularning rivojlanishini, janrlarning tarixiy asoslarini va

tilshunoslikni tahlil qilish jamiyatdagi til va kuch munosabatlarini anglashda muhimdir. Tarixiy tahlil matbuot tilining qanday o'zgarib borganini, u qanday ijtimoiy va siyosiy kontekstlarda shakllanganini ko'rsatadi» [Van Dijk, 1997; 142].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Arab matbuoti tarixini yoritishda T. A. Van Dijkning "Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction" (1997) asari matn va diskurs tahlilining nazariy asoslarini belgilab, arab gazetalaridagi til va uslubni tahlil qilish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Jamal Abdul Azim Khalil Sabatning "Wasa'il al-

Compiled on: November 1, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Ittisal: Nash'atuhā wa Tathawuruhā" (2001) asarida arab dunyosida axborot vositalarining paydo bo'lishi va evolyutsiyasi yoritilgan. Adib Marwining "As-Sahafa al-'Arabiyya: Nash'atuhā wa Tathawuruhā" (1961) esa arab gazetachiligining dastlabki bosqichlarini tarixiy manbalar asosida tahlil qiladi. Sajad al-Ghazi (1982) o'z asarida arab jurnalistikasining qonuniy, tashkiliy va texnik jihatlarini tahlil etadi, bu esa matbuotning institutsional rivojlanishini anglashda muhimdir. "Matba'at Bulaq Ra'idat al-Matabi' al-'Arabiyya" (2019) maqolasida Buloq bosmaxonasining arab matbuoti tarixidagi o'rni yoritilgan bo'lib, bu nashr arab bosma madaniyatining boshlanish nuqtasi sifatida baholanadi. Philip de Tarazining "Tarikh as-Sahafa al-'Arabiyya" (2012) asari arab jurnalistikasi tarixini tizimli tahlil etgan eng muhim manbalardan biri bo'lib, ilk gazetalar va ularning janriy shakllarini izchil ko'rsatadi. Saber al-Harith (2006) arab matbuotining mafkuraviy yo'nalishlarini o'rganadi, Ibrahim al-Muslimi (2002) esa arab gazetalarining xalqaro nashrlar sifatida kengayishini tahlil qiladi. Umuman, ushbu manbalar arab matbuotining tarixiy ildizlari, janriy rivoji, huquqiy asoslari va zamonaviy bosqichlarini o'rganishda kompleks ilmiy poydevor vazifasini bajaradi.

Tadqiqotda tarixiy-tipologik, taqqoslash va tahliliy metodlardan foydalanilgan. Ushbu yondashuv orqali arab matbuoti taraqqiyotining bosqichlari, ilk gazetalarining mazmuni va zamonaviy nashrlar bilan bog'liqligi ilmiy asosda o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarixchilar arab harflaridan foydalangan birinchi bosmaxona qachon tashkil etilganligi borasida turlicha fikr bildirishadi. Ba'zi manbalarga ko'ra, xususan, doktor Xalil Sobot va Jamol Abdulazimlar 1514-yilda Rimda arabcha harflar bilan chop etish imkonini beruvchi birinchi bosmaxona tashkil etilganini ta'kidlaganlar [Xalil Sabat, 2001; 106]. Ushbu bosmaxonada XVI asr davomida ilmiy kitoblar va xristian diniy asarlari chop etilgan, so'ngra ular Sharq bozorlariga yuborilib sotilgan. Bu fikrni tasdiqlovchi dalillardan biri shundaki, Usmoniy sultoni Murod III tomonidan 1594-yilda chiqarilgan ba'zi farmonlar aynan shu

bosmaxonada chop etilgan.

Adib Marvaning fikrlariga ko'ra, arab yozuvida faoliyat yurituvchi bosmaxonalar XVII asr arab dunyosining markaziy shaharlariga kirib kela boshladi. Bosib chiqarish texnologiyasi Usmoniy imperiyasining poytaxti – Istanbulda joriy etilgan bo'lsa-da, Sharqiy Arab dunyosidagi birinchi arab bosmaxonasi Halab shahrida XVIII asr boshlarida, taxminan 1702-yilda tashkil etilgan. Ushbu bosmaxonaning bosma harflari Buxarestdan keltirilgani taxmin qilinadi [Adib Marva, 1961; 58].

Keyinchalik, Istanbulda ikkinchi bosmaxona tashkil etildi, ammo bu jarayon jiddiy qarshiliklarga uchradi. Usmoniy hukumati va diniy arboblardan bosib chiqarish texnologiyasini shaytonning ishi deb hisoblab, unga qarshi chiqdilar. Shunga qaramay, 1712-yilda Usmoniy imperiyasining bosh vaziri (sadr a'zami) bo'lishi kutilayotgan Said Afandi ba'zi olimlarning ko'magida Usmoniy sultonidan ruxsat oladi. Shu bilan bosmaxona ochish va turli kitoblarni chop etishga ruxsat beriladi. Shunda ham tafsir, hadis, fiqh va kalom ilmlariga oid kitoblarni bosib chiqarishga ruxsat berilmagan.

Arab tilidagi bosma nashrlarning muhim markazlaridan biri Livan bo'ldi. Arab dunyosidagi ilk bosmaxonalardan biri 1733-yilda Livanning Shuvayr qishlog'ida tashkil etildi. Uni tashkil etgan shaxs – shayx Abdulloh az-Zoxir bo'lib, u ushbu bosmaxonani «Mar Yohanna as-Sayigh» monastirida tashkil qildi va keyinchalik uni oshshuriya rohiblariga topshirdi. Ushbu bosmaxona arab tilidagi kitoblarni nashr etgan bo'lsa-da, dastlab ular suryoniy harflarida chop etilgan. Keyinchalik, Halab bosmaxonasida quyma arab harflari ishlab chiqarila boshlandi va bosmaxona an'anaviy arab harflaridan foydalanishga o'tdi. 1750-yilda pravoslav xristianlar ham o'z bosmaxonasini ochishga qaror qilishdi. Ular Shuvayr bosmaxonasiga raqobatchi sifatida Bayrut shahrida arab bosmaxonasini tashkil etishdi. XIX asrga kelib, Livan va Suriya bosmaxonalari asosan diniy kitoblar chop etishga ixtisoslashgan edi. Ammo vaqt o'tishi bilan ilmiy va adabiy kitoblarni nashr etishga ham e'tibor qaratila boshlandi.

XIX asr davomida arab madaniyati va ilmiy merosini targ'ib qilish maqsadida yangi bosmaxonalar tashkil etildi. Ulardan eng

mashhurlaridan biri 1834-yilda Bayrutda tashkil etilgan Amerika bosmaxonasi bo'lib, unga Gali Smit nomli shaxs asos solgan. XIX asr o'rtalarida tashkil etilgan eng nufuzli bosmaxonalardan yana biri – Yevsuiy olimlari tomonidan asos solingan «Matba'at al-Adibaa» (Adiblar bosmaxonasi) bo'ldi. Ushbu bosmaxona mukammal texnologiyaga ega bo'lib, hozirgacha faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Uning xizmati orqali arab tilida ko'plab ilmiy, badiiy, madaniy va lug'at kitoblari chop etilgan. Shu bois, bu bosmaxona arab madaniyati va ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan nashriyotlardan biri hisoblanadi [Sajjod G'oziy, 1982; 92].

1819-1821-yillar oralig'ida Misrda tashkil etilgan «Buloq bosmaxonasi» (مطبعة البلاق), shuningdek «Milliy bosmaxona» (المطبعة الشعبية) deb ham nomlangan bosmaxona arab dunyosining zamonaviy uyg'onish sari ilk katta qadamlaridan biri hisoblanadi. «Al-Iqtisodiyya» internet jurnali e'lon qilgan maqolada ushbu bosmaxona haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: «Dastlab «Buloq bosmaxonasi» Misr hukmdori Muhammad Ali Poshoning armiyasi uchun mo'ljallangan harbiy nashriyot sifatida tashkil etilgan. U yerda harbiy fanlar, muhandislik, geografiya, qurolsozlik, tibbiyot va veterinariya kabi sohalarga oid kitoblar chop etilgan. Shu nuqtai nazardan, bosmaxona harbiy vosita sifatida ko'rilgan – xuddi Rossiya imperatori, Fransiya imperatori va Muhammad Ali Posh o kabi hukmdorlar matbaani harbiy maqsadlar uchun muhim vosita deb bilishgani kabi. Keyinchalik, Misr armiyasiga qarashli boshqa bosmaxonalar ham tashkil etildi. Yuqori darajadagi harbiy maktablar va ilmiy muassasalar uchun bosmaxonalar ochilib, ular ilmiy adabiyotlar chop etishga yo'naltirildi».

1820-yildan keyin arab matbaachiligi katta taraqqiyotni boshdan kechirdi. Ayniqsa, Misr, Hindiston va Rossiyada katta o'zgarishlar yuz berdi. Meros bo'lib qolgan muhim qo'lyozmalar tahlil qilinib, nashrga tayyorlandi. Muharrirlik, matnni tahrirlash va husnixat san'ati rivojlandi. 1821-yil – Iroqning Kazoimiyah shahrida «Dor as-Salom» toshbosmasi (litografik bosmaxona) tashkil etildi. Bu bosmaxonada Shayx Rasul Afandi al-Karkuli tomonidan yozilgan «Doma al-Zavro fi Tarikh Vaqo' al-Zavro» (Zavro voqealari tarixi) nomli

kitob nashr etilgan. Ba'zi manbalarda esa ushbu bosmaxona 1830-yilda tashkil etilgani haqida ma'lumotlar mavjud.

1855-yil – Sham (Damashq) shahrida ilk arab bosmaxonasi tashkil etildi. Uning asoschisi Hanno ad-Dumoni bo'lib, keyinchalik bosmaxona Hanno al-Haddod tomonidan sotib olindi, so'ngra Muhammad Afandi al-Hafni qo'liga o'tdi. 1883-yil – Usmoniylar valisi Usmon Nuri Posh tomonidan Makka shahrida «al-Matba'a al-Miriyya» (Davlat bosmaxonasi) tashkil etildi. Bosmaxona dastlab kichik o'lchamdagi bosish dastgohidan foydalangan, ammo keyinchalik Usmoniylar davlati tomonidan o'rtacha hajmli bosma dastgohi bilan ta'minlandi. Yillar o'tishi bilan bosmaxonaga toshbosma texnologiyasi ham olib kelindi. Ushbu bosmaxonada arab, turk va yava (indonez) tillarida kitoblar chop etilgan. 1885-yil – Iroqning Mosul viloyatida ilk gazeta – «al-Mosul» gazetasi chiqarildi. Bu nashr 1918-yilda Britaniya va Usmoniy qo'shinlari o'rtasida sulh imzolanishidan bir necha kun oldin to'xtatilgan. 1895-yil – Basra viloyatida ilk gazeta – «al-Basra» gazetasi chop etila boshlandi. Uni Livanlik Sulaymon al-Bustoni (1856-yilda tug'ilgan) Basra valisi Qosim Posh tomonidan topshirig'i bilan tashkil etgan. Bustoni ushbu gazeta faoliyatini boshlaganida hali 20 yoshga ham to'lmagan edi. Gazeta 1914-yil 23-noyabrda nashr etishdan to'xtagan.

Dastlabki siyosiy arab gazetalarning paydo bo'lishi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. «Al-Javoyib». Arab dunyosidagi ilk nufuzli gazetalardan biri bo'lib, 1860-yilda Istanbulda tashkil etilgan. Gazetaning asoschisi – Livanlik Ahmad Foris al-Shidyoyq. U Sultoniya bosmaxonasida haftalik nashr sifatida chop etilar edi. Gazeta o'n yil davomida nashr qilingandan so'ng, al-Shidyoyq unga alohida bosmaxona tashkil etdi. U bosmaxonani eng ilg'or bosma uskunalar bilan jihozlab, uni Usmoniylar imperiyasidagi eng mashhur matbaalardan biriga aylantirdi.

2. «Nafiri Suriyya». Arab siyosiy tafakkuri rivojida muhim o'rin tutgan gazetadir. Bayrutda 1860-yilda Batrus al-Bustoni tomonidan nashr etilgan. Gazeta «Suriyaning nidosi» ma'nosini anglatadi. Ushbu gazeta Livandagi milliy uyg'onish harakati ichidagi fikrlar va qarashlar aks ettirilgan nashr bo'lib, 1860-yilgi Shomdagi (Levant)

fuqarolar urushidan so'ng xalqni tinchlantirish uchun chiqarilgan. Urush yakun topib, mamlakatda osoyishtalik tiklangach, gazeta yopilgan.

3. "Ar-Roid at-Tunisi". Tunisdagi eng qadimgi gazeta bo'lib, 1860-yilda tashkil etilgan. U hozirgi kunda ham "Ar-Roid ar-Rasmi lil-Jumhuriyya at-Tunisiyya" (Tunis Respublikasi Rasmiy gazetasi) nomi ostida chop etilmoqda. Gazeta dastlab ruxsat etilgan hujjatlar va madaniy-ijtimoiy mavzularni qamrab olgan, ammo 1881-yil iyul oyida Tunisga Fransiya mustamlakachilik tartibi o'rnatilganidan so'ng, gazetaning faoliyati faqat rasmiy hujjatlar e'lon qilish bilan cheklangan. Bu holat hozirgacha davom etmoqda.

4. "Majallat al-Ya'suv". Arab tilidagi ilk tibbiy jurnal hisoblanadi. 1865-yilda Qohirada doktor Muhammad Ali Posho al-Baqliy tomonidan tashkil etilgan. Jurnal har oy chop etilar va Misrdagi Bolok bosmaxonasida bosilgan. Tahririyat tarkibiga Ibrohim Dasuqiy Bek ham kirgan. 1876-yilgacha nashr etilgan.

5. "Vodi an-Nil". Ilmiy-siyosiy jurnal bo'lib, 1866-yilda Abdulla Abu Sa'ud tomonidan tashkil etilgan. U haftasiga ikki marta chop etilgan va 12 yil faoliyat yuritib, asoschisi vafot etganidan so'ng (1878-yil) yopilgan.

6. "Al-Furat". Suriya va umuman Arab dunyosidagi eng qadimgi gazetalaridan biri. 1867-yilda Halab (Aleppo) shahrida asos solingan. Arab tilida chiqarilgan va Suriya matbuot tarixida muhim o'rin tutgan.

7. "Lubnan". 1867-yilda Livanning Bayt ad-Din shahrida nashr etilgan. Uni Jabal Lubnonda hukmronlik qilgan Dovud Posho o'z hukumat manfaatlarini targ'ib qilish maqsadida tashkil etgan.

8. "Az-Zavro". Iroqning ilk gazetasi. 1869-yilda Usmoniylar davridagi Iroq valisi Midhat Posho tomonidan tashkil etilgan. Gazeta nashr qilish uchun Parijdan bosmaxona olib kelingan. Shu boisdan bosmaxona ham, gazeta ham bir-biriga bog'liq ravishda ishlab turgan. Az-Zavro ilk sonidan boshlab arab va turk tillarida chop etilgan. Dastlab 8 sahifadan iborat bo'lgan, keyinchalik 4 sahifaga qisqartirilgan. 1908-yilgacha faoliyat yuritgan.

XVIII asrning oxirida Qohira shahrida arab matbuotining quyoshi porladi. Bu jarayon Fransiya

tomonidan Misrga yuborilgan ekspeditsiya – general Napoleon Bonapart boshchiligidagi harbiy yurish natijasida yuzaga keldi. Keyinchalik Napoleon Frantsiya imperatori bo'ldi va Napoleon I nomi bilan taxtga o'tirdi. Shu tariqa Fransiya arab dunyosiga zamonaviy jurnalistika san'atini olib kirdi.

Ekspeditsiyaning siyosati rasmiy bosmaxonalarni va ularning rahbari – Hanna Yusuf Mirsalni "Sharq" nomli kemaga joylashtirish bilan cheklangan edi. Ushbu kema general Bonapartni va ekspeditsiyaning bosh qo'mondonini olib yurgan. Ekspeditsiya bosmaxonalari ikki qismga bo'lingan: biri g'arbiy (fransuzcha), ikkinchisi esa sharqiy bo'lib, ikkisi birgalikda "Dengiz armiyasi bosmaxonasi" deb nomlangan. Bosmaxonalar Iskandariyada joylashgandan keyin "Sharqiy va fransuz bosmaxonasi" deb nom oldi, keyinchalik esa Qohirada "Milliy bosmaxona" deb ataldi.

Bosmaxona o'z faoliyatini yo'l-yo'lakay boshladi: 1791-yil 28-iyunda qo'mondonning buyruqlari askarlarga e'lon qilindi. Shuningdek, arab tilida e'lon tayyorlanib, Misr aholisi orasida tarqatildi. Bu e'lon ekspeditsiya Iskandariyaga yetib kelganidan so'ng, 1798-yil 2-iyulda tarqatilgan edi.

Tadqiqotchi olim Filip Taraziy aytishicha, Ibrohim Abduh fransuz bosmaxonalari tomonidan Misrda bosib chiqarilgan asarlar ro'yxatini tuzib chiqqan. Ular orasida quyidagi bosmaxonalar faoliyat yuritgan edi:

- Sharqiy bosmaxona;
- Fuqarolik bosmaxonasi (مطبعة المواطن);
- Harbiy bosmaxona;
- Qohira Milliy bosmaxonasi [Filip De Taraziy, 2012; 77].

Bu bosmaxonalarda turli janrdagi 20 ga yaqin asarlar nashr etilgan, jumladan: rasmiy farmonlar, kitoblar, ogohlantirishlar, taqvimlar, hujjatlar, fransuz qonunchiligiga oid matnlar, arab tili grammatikasi va boshqa asarlar. Bundan tashqari, bosmaxonalar ikkita gazeta nashr etgan:

1. "Courier de l'Égypte". Bu gazeta siyosiy nashr bo'lib, uni Mark Auril asos solgan. U har besh kunda bir marta Qohirada nashr etilgan. Gazetaning dastlabki 30 soni Mark Aurilning bosmaxonasida chop etilgan. Jami 116 ta soni chiqarilgan bo'lib, birinchi soni 1798-yil 28-avgustda, oxirgisi esa

1799-yil 20-aprelda chop etilgan.

2. “La Décade Égyptienne”. Bu gazeta adabiyot va siyosiy iqtisodiyotga bag‘ishlangan bo‘lib, har o‘n kunda bir marta nashr etilgan va Misr Fanlar Akademiyasining rasmiy nashri bo‘lgan. Uning birinchi soni 1798-yil oktabrda chop etilgan. Gazeta faqat adabiyot, ilm-fan, san‘at, savdo, huquq va ijtimoiy tashkilotlar bilan bog‘liq masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, siyosiy masalalarga aralashmagan. Nashrning asosiy maqsadi Misrni nafaqat u yerda yashayotgan fransuzlarga, balki Fransiya va butun Yevropaga ham tanishtirish edi. Jami 9 soni chop etilgan bo‘lib, ular uchta jildga jamlangan [Sobir Horis, 2006; 83].

Arab tili matbuotning afzalliklaridan uzoq vaqt bebahra bo‘lib keldi. Faqat 27 yil o‘tib, Misr hokimi Muhammad Ali Pasha gazetachilik sohasida yangi davrni boshlab berdi. U “Al-Waqa’i’ al-Misriyya” gazetasiga asos soldi. Bu gazeta arab tilidagi birinchi rasmiy davlat gazetasi bo‘ldi. Misrda shaxsiy tashabbus bilan chop etilgan birinchi gazeta fransuz tilida edi. Bu “Le Moniteur Égyptien” gazetasi bo‘lib, uni fransuz fuqarosi Muhammad Ali Pashaning qo‘llab-quvvatlashi bilan chiqargan. U Muhammad Ali boshqaruvini Yevropada targ‘ib qilish uchun xizmat qilgan.

Keyinchalik “Ya’süb at-Tibb” jurnali 1865-yilda Muhammad Ali Hakim tomonidan nashr etilgan bo‘lib, Misr va butun arab dunyosidagi birinchi tibbiy jurnal bo‘ldi. 1827-yilda esa “Rawdat al-Madaris” jurnali Rifa’a Rafi’ at-Tahtaviy tomonidan chop etilgan. Bu ilmiy-adabiy jurnal yarim oyda bir marta nashr etilgan. Misrda arab fuqarosi tomonidan chop etilgan birinchi gazeta “Wadi an-Nil” bo‘lib, uni Abdulloh Pasha Abu Saud chiqargan. U Rifa’a at-Tahtaviyning shogirdi bo‘lib, ushbu gazeta rasmiy va xalq gazetasi o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan.

Fransuzlar Misrdan chiqib ketgandan so‘ng, bosmaxona faoliyati to‘xtatildi. Keyinchalik, 1821-yilda Muhammad Ali Pasha davlat ehtiyojlari uchun yangi bosmaxona tashkil etdi. U Bolak bosmaxonasi (Matba‘at Bulaq) deb nomlandi. U rasmiy hujjatlar va gazetalarni chop etdi, shuningdek, ko‘plab kitoblarni turli tillarda nashr qildi. Livanlik Ilyos Masabki Misrda arab tipografiyasini rivojlantirishga hissa qo‘shgan ilk shaxslar qatoriga kiradi. Ibrohim al-Yozijiy esa arab

harflari asosini yaratib, bosmaxonalarga xizmat ko‘rsatgan.

Fransiya Shimoliy Afrikadagi bosib olingan hududlarida gazeta chiqarish zarur deb topdi. Shu tariqa 1847-yil 15-iyulda Jazoirida “Al-Mubashshir” gazetasiga asos solindi. U arabcha va fransuzcha nashr etilgan va mahalliy aholiga mo‘ljallangan edi. Birinchi arab matbuotchisi Rizqalloh Hassun al-Halabiy hisoblanadi. U 1855-yilda Istanbulda “Mir’at al-Aḥwāl” gazetasini chop etdi. Gazeta har hafta chop etilib, Qrim urushi haqida xabar berib bordi. U Usmonli imperiyasini tanqid qilgani uchun sulton tomonidan hibsga olinmoqchi bo‘ldi, ammo Rossiyaga qochib ketdi. Usmonlilar unga qatag‘on e‘lon qilib, sirdan o‘limga hukm qildilar. Keyinchalik, arab matbuoti yanada rivojlanib, arab dunyosining mustaqillikka erishishida, milliy birlikni mustahkamlashda va madaniy taraqqiyotda muhim rol o‘ynadi. Bugungi kunda esa arab gazetachiligi globalizatsiya davrida arab milliy o‘zligining saqlanishi uchun kurashmoqda.

E’tiborga molik jihati, Londonda ham arab tilida siyosiy gazetalar chop etila boshlagan. Londonda chop etiladigan arab matbuoti nashrlari arab dunyosidagi eng nufuzli va xalqaro e’tiborga ega bo‘lgan gazetalar va jurnallarni o‘z ichiga oladi. Ushbu nashrlar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy mavzularni qamrab olgan bo‘lib, ko‘plari arab diasporasi va xalqaro jamoatchilikka mo‘ljallangan. Jumladan, quyidagilarni sanashimiz mumkin:

1. “Al-Arab” (العرب). Mustaqil kundalik gazeta bo‘lib, London shahrida chiqarilgan ilk arab gazetasi hisoblanadi. U 1977-yil iyul oyida marhum liviyalik jurnalist Ahmad as-Solihin al-Huni tomonidan tashkil etilgan. Gazeta “Al-Arab Xalqaro Matbuot va Nashriyot” muassasasi tomonidan nashr qilinadi, bu muassasa 1972-yilda tashkil etilgan [Filip De Taraziy, 2012; 104]. Muhim jihatlar: Arab va Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan; Ko‘plab professional jurnalistlar ishlagan, keyinchalik ular boshqa nufuzli arab gazetalarni yaratgan; Gazetaning filiallarga ega bo‘lgan asosiy shaharlar: Tunis, Liviya, Qohira va Abu-Dabi.

2. “Arab News”. 1975-yil 20-aprelda Saudiyalik tadbirkor Hishom Hofiz va Muhammad Hofiz akalari tomonidan tashkil etilgan. Bu birinchi

ingliz tilida nashr etilgan Saudiya gazetasi bo'lib, Londonda tahrir qilinib, xalqaro miqyosda tarqatiladi.

3. “Ash-sharq Al-Avsat” (الشرق الأوسط). Xalqaro arab gazetalarining yetakchilaridan biri. Bosma va onlayn versiyalari mavjud. Unga 1978-yil 4-iyulda Hishom va Muhammad Ali Hofiz aka-ukalari tomonidan asos solingan. Gazeta Londonda chop etiladi, biroq butun dunyodagi arab o'quvchilarga mo'ljallangan. Uning mazmuni keng qamrovli bo'lib: mintaqaviy va xalqaro siyosiy yangiliklar; ijtimoiy masalalar; iqtisodiy va biznes yangiliklari; sport va madaniy tadbirlar; 21 ta maxsus ilova (mashhurlik, moda, texnologiya va boshqalar) kabil yo'nalishlarni qamrab oladi.

4. “Al-Hayat” (الحياة). Gazeta 1946-yil 28-yanvarda Beyrutda Kamil Marva tomonidan tashkil etilgan. 1988-yilda qayta yana tiklanib, Londonda nashr qilina boshlagan. Xalqaro arab ommaviy axborot vositalarining muhim bo'g'ini sanaladi. Ushbu gazeta quyidagi tamoyillarga asoslangan: axborotning aniqligi va shaffofligi; mustaqil va ob'ektiv tahlillar; zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan jurnalistika.

Asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni zikr qilish mumkin: Yevropa va arab dunyosidagi eng yirik muxbirlar tarmog'iga ega; xalqaro axborot agentliklari bilan hamkorlikda ishlaydi; yangiliklarni sun'iy yo'ldosh orqali yetkazish tizimiga ega;

Shuningdek, Ibrohim Abdulloh Muslimiy o'z tadqiqot ishida Londonda chop etiladigan siyosiy jurnallarni ham sanab o'tgan [Ibrohim Abdulloh, 2002;134]. “Al-Iqtisad al-Arabi”, “Ad-Dustur”, “As-Sayyad”, “Al-Havadis”, “Al-Majalla”, “Sayidati”, “At-Tadamun”, “Al-Kumbiyuter wa al-Idara”, “Al-Alam”, “Al-Video al-Arabi”, “An-Naqid”,

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arab matbuoti o'z taraqqiyoti davomida jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. U dastlab diniy va ma'rifiy maqsadlarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy masalalarni yorituvchi keng qamrovli axborot tizimiga aylandi. Arab gazetalarining tili, uslubi va janriy xilma-xilligi arab jamiyatida

axborot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Ilk nashrlar orqali boshlangan matbuot an'anasi bugungi kunda zamonaviy arab jurnalistikasi ko'rinishida davom etmoqda. Xususan, “Ash-Sharq al-Awsat”, “Al-Hayat”, “Arab News” kabi gazetalar nafaqat arab dunyosida, balki xalqaro axborot makonida ham o'z o'rnini mustahkamlagan. Ular dolzarb global mavzularni yoritish, tahliliy yondashuv va xolis axborot berish orqali arab jurnalistikasining professional darajasini oshirmoqda.

Shunday qilib, arab matbuoti tarixiy ildizlari, madaniy missiyasi va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari bilan butun arab dunyosining fikriy va ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qilayotgan kuchli ijtimoiy institut sifatida e'tirof etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Van Dijk, T. A. (1997). *Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction*. London: SAGE. p. 215.
2. Xalil Sabat, Jamal Abdul Azim. *Vasail al-Ittisal: Nash'atuha va Tatavuruha*. Maktabat al-Anglo al-Misriyya, 9th Edition, Cairo – 2001 – p. 347.
3. Adib Marva. *As-Sahafa al-Arabiyya: Nashatuha aa Tatavuruha*. Maktabat al-Hayat, 1st Edition, Beirut – 1961 – p. 228.
4. Sajad al-Ghazi. *As-Sahafa al-'Arabiyya Tashri'an wa Tanziman wa Taqniyya*. Dar al-'Uloom, Lebanon – 1982 – p. 287.
5. Philip de Tarazi. *Tarikh as-Sahafa al-'Arabiyya*. Mu'assasat Hindawi, 2012 – p. 1036.
6. Saber al-Harith. *Idiyulujiyat as-Sahafa al-'Arabiyya*. Dar al-'Arabiyya, Cairo – 2006 – p. 83.
7. Philip de Tarazi. *Tarikh as-Sahafa al-'Arabiyya*. Mu'assasat Hindawi, 2012 – p. 258.
8. Ibrahim Abdullah al-Muslimi. *At-Taba'at ad-Duwalliyya li-S-Suhuf al-'Arabiyya*. Dar al-'Arabi, Cairo – 2002 – p. 164.
9. Matba'at Bulaq Ra'idat al-Matabi' al-'Arabiyya, *Al-Iqtisadiyya Newspaper*, March 1, 2019: <https://www.aleqt.com/2019/03/01/article>

10. Shabakat an-Naba', Mustalahat I'lāmiyya:
<http://annabaa.org/nbanews/68/246.htm>